

# TAFAKKUR ZIYOSI

*Tafakkur ziyosi 1/2022  
ilmiy uslubiy jurnal*



**“Xalqimiz talablarini inobatga olgan holda, biz Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqdik va saylov jarayonida uni o‘ziga xos umumxalq muhokamasidan o‘tkazdik. Bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta‘minlash maqsadida, “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy g‘oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo‘yildi”.**

**“Prezident sifatida men mamlakatimiz tinchligi, el-yurt farovonligi, Vatan taraqqiyoti yo‘lida butun borlig‘imni bag‘ishlab, xalqimga sadoqat bilan xizmat qilishni hayotimning ma‘no-mazmuni deb bilaman. Men uchun bundan boshqa oliy maqsad, baxt-saodat yo‘q. Siz, qadrlil vatandoshlarimning chin dildan qo‘llab-quvvatlashingiz, nuroniy otaxon va onaxonlarimizning duolari, aziz yoshlarimizning ishonchi menga katta kuch-g‘ayrat beradi”.**

***SHAVKAT MIRZIYOYEV***

**BOSH MUHARRIR:**

*Shavkat Safarovich Sharipov –  
pedagogika f.d., professor*

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:**

*Usmonjon Qosimov – filologiya f. d.  
G'ayrat O'roqboyevich Qodirov –  
biologiya f.n., dotsent*

**MAS'UL KOTIB:**

*Farrux Aqchayev – tarix f.b.f.d., dotsent*

**TARJIMONLAR:**

*Zubayda Jumayeva-  
filologiya.f.b.f.d.(PhD)*

*Eldar Hasanov  
(rus tili)*

*Kamoliddin Normurodov  
(ingliz tili)*

**TEXNIK MUHARRIR:**

*Murodulla Jo'rayev – filologiya  
f.b.f.d., (PhD)*

**NAVBATCHI MUHARRIR:**

*Feruza Jumayeva – filologiya  
f.b.f.d., dotsent*

**SAHIFALOVCHI:**

*Adolat Uskinboyeva*

**Jurnal andozasi Raqamli ta'lim  
texnologiyalari markazida**

*Rasuljon Meliquziyev  
tomonidan tayyorlandi*

*Muassis - Jizzax davlat  
pedagogika instituti*

*Jurnal yilda 4 marta  
(har chorakda) chop etiladi.*

*Matnlardagi foydalanilgan ko'chirma  
va ma'lumotlar aniqligi uchun  
mualliflar mas'uldirlar.*

*Jurnaldan ko'chirib bosilganda,  
manba qayd etilishi shart.*

**JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI**

*Anatoliy Sagdullayev – tarix f. d., akademik*

*Komiljon Tojiboyev – biologiya f. d., akademik*

*Jak Miklovik – INSHEA universiteti professori (Fransiya)*

*Vasiliy Kochurko – Baranovich DU professori, texnika f. d.  
(Belorussiya)*

*Gulsem Lekerova – psixologiya f.d., professor (Janub. Qozog'iston)*

*Furqat Jo'raqulov – siyosiy f. d., dotsent*

*Botir To'xtamishov – texnika f.n., dotsent*

*Sarvar Nazarqosimov – sotsiologiya f. b. f. d.*

*Baxtiyor To'rayev – falsafa f.d., professor*

*Xolbo'ta Turaqulov-texnika f.d., professor*

*Baxti Ochilova - falsafa f.d., professor*

*Qozoqboy Yo'ldoshev – pedagogika f. d., professor*

*Umrzoq Jumanazarov – filologiya f. d., professor*

*Abdug'afur Mamatov - filologiya f. d., professor*

*Rahmatulla Bekmirzayev – fizika-matematika f. d., professor*

*Oybek Axmedov – filologiya f.d., professor O'zDJTU*

*Faniya Axmedshina – tarix f. d., professor*

*Hamid Meliyev – pedagogika f. n., professor*

*Xudoybergan Mavlonov – biologiya f. d., dotsent*

*Qo'chqor Hakimov – geografiya f. n., professor v.b.*

*Ilyos Islamov – tarix f. d., dotsent*

*Rustam Abdurasulov – psixologiya f. d., dotsent*

*Zuxra Yaxshiyeva – kimyo f. d., dotsent*

*Muxtorqul Pardayev - tarix f. n., dotsent*

*Rabbim Yusupov – texnika f. n., dotsent*

*Oleg Kim – filologiya f. n., dotsent*

*Kamoliddin Zoyirov – pedagogika f.n., dotsent*

*Abdivali Shamshiyev – iqtisod f. n., dotsent*

*Sunnatullo Soipov – filologiya f. n.dotsent*

*Yulduz Karimova – filologiya f. n., dotsent.*

*Omon Isarov – filologiya f. n., dotsent.*

*Sherali Abduraimov – pedagogika f. b. f. d., dotsent*

*Furqat Axmedov - pedagogika f.n., professor*

*To'ychi Axmedov – tarix f.b.f.d., dotsent*

*Akbar Saitqosimov – falsafa f. d., professor v.b.*

**Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa va pedagogika fanlari bo'yicha ekspert kengashi (2018-yil 29-dekabrda 260/6-son bayonnomasi) tavsiyasi bilan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.**

**Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181- 6131**

MANZIL: 130100, Jizzax shahri,  
Sh. Rashidov ko'chasi, 4-uy, bosh bino  
TELEFON: (99872) 226 02 93,  
(99897) 644 84 44  
FAKS: (99872) 226 46 56

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
MATBAA BO'LIMI

Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy  
2022-yil 25- mart kuni bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi A4 Buyurtma: \_\_\_\_\_  
Nashr adadi: 100

# MUNDARIJA

## TAHRIRIYAT MINBARI:

S.I.Nazarqosimov, S.S.Karimov Yangi O'zbekistonda yoshlar va ularning maqsadlari.....	3
A.Saitqosimov Taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizda milliy yuksalishni ta'minlashning muhim mezonini.....	6

## PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

Ш.О.Джамалдинова Проблемное обучение - инструмент, обеспечивающий эффективность образования в литературе.....	9
D.S.Tursunov Umummadaniy kompetentlik ta'lim darajasi sifatida.....	12
D.U.Jumanazarova O'zbeklarning farzand tarbiyasiga oid an'analari (Jizzax vohasi misolida).....	15
I.A.Umarova Mehr va saxovat tushunchalari etnopedagogik termin sifatida.....	17
M.Sh.Mansurov Umumta'lim maktabi o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda psixologning o'rni va roli (sotsiologik so'rov tahlili asosida).....	21
D.N.Alimdjanova Oliy ta'lim didaktik jarayonlarida mualliflik texnologiyalarini tatbiq qilish tizimi (pedagogika va psixologiya fanlari misolida).....	26
P.Y.Munarova Metodi, formi va faktori razvitiya tvorcheskogo myshleniya uchashixs nachalnyx klassov.....	29
R.O.Paxratdinova Maktab o'quvchilarining ijodkorlik faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari.....	32
S.Ubaydullayev Texnologiya ta'limida innovatsion-pedagogik texnologiyalaridan foydalanishning ba'zi jihatlari.....	36
U.A.Eshquvvatov Talabalarni muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi.....	40

## AMALIY FANLAR

X.S.Omonov, O.A.Egamkulov Musiqa ta'limida nota savodxonligining boshlang'ich davri uslublari.....	43
R.T.Umarov, Sh.T.Isoqov Texnologiya fanidan mashg'ulotlarda temuriylar davridagi xalq hunarmandchiligi bo'yicha tushunchalar berish.....	47
R.J.Usnatov Bo'lajak aktyor tarbiyasida intonatsiya va uning ahamiyati.....	50
U.Q.Utanov, D.S.Yakubova Axborot kommunikatsion texnologiyalari yordamida musiqa darslarining samaradorligini oshirish yo'llari.....	52
P.O'.Xudoyberdiyev, M.I.Xudoyberdiyev Inson qiyofasini o'qish san'ati.....	55
A.A.Ergashev Arxitekturaviy fantaziya va uning loyihaviy ijodkorlikdagi roli.....	57
S.R.Xalikov Bauhaus maktabi va valter gropiusning ta'lim usullari, maqsad va vazifalari.....	60
Sh.Ch.Bekmirov Arxitektura ta'limida akvarel texnikasiga oid materiallardan foydalanish.....	64
J.T.Ishmatov Arxitekturaviy obyektlarda reliefsimon kompozitsiyalarning qo'llanilishi.....	67
O.O.Karimov Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetentsiyalarini rivojlantirish.....	70

## IJTIMOY FANLAR

X.N.Abduniyazov Milliy yuksalish sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashni o'rganishning nazariy metodologik asoslari.....	73
T.Axmedov, A.Qarshiboyeva Ta'limni nomarkazlashtirishning mazmuni va mohiyati.....	76
G.H.Bekmurodova Frankfurt maktabining ijtimoiy - destruksiya konsepsiyasi.....	80
F.D.Shermanova Mediatilim texnologiyalar asosida bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlari namoyon bo'lishining pedagogik xususiyatlari.....	84
U.I.Zokirova O'zbekistonning ta'limga oid siyosatida ma'naviy taraqqiyot masalalari.....	87
S.M.Raxmonov Jaloliddin Rumi ijodining o'rganilishi masalalari.....	90
Sh.B.Suyunov Milliy o'zlikni anglashda milliy tilning ijtimoiy-falsafiy zarurati.....	95
Q.O.Alimova Kitobxonlik millat ma'naviyatini yuksaltirishning ustuvor omili.....	99
S.B.Abdugodirov An'anaviy gilamdo'zlikda naqshlar va ramzlar tahlili (Jizzax vohasi misolida).....	102
M.Y.Sultonov Islom qadriyatlarini va ma'rifatining shaxs axloqiy fazilatlarini kamol toptirishdagi o'rni.....	105

## FILOLOGIYA FANLARI

H.Yuldasheva Erkin Vohidovning milliy ruhni hajviy obraz va xarakterlar orqali ifodalash mahorati.....	108
U.Qosimov, Sh.A.Jo'rayev Navoiy dahosi va barhayot an'analari.....	111
M.Hoshimxonov, T.G'oziyev Mutafakkir Mashrab yashagan XVII-XVIII asrlar Movarounnahr adabiy muhiti.....	114
M.E.Axmedova Filologik ta'limda mustaqil topshiriqlar tuzish va foydalanish metodikasi.....	119
X.X.Xaitov "Alpomish" dostonida leksik-fonetik dialektal so'zlar.....	121
Z.N.Abdualiyeva, A.A.Usanov Fe'l munosabatlarining uslubiy ma'no ifodalashi.....	126
Z.Sh.Jumayeva Raqam komponentli frazeologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi.....	128
G.N.Isakova Qanotli so'zlar komponent tarkibini kengaytirish va qisqartirish usullari.....	131
N.Mustafayeva Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rgatishda differensial yondashuv.....	135
S.S.Halimov Edgar Allan Po - sarguzasht novellalar ustasi.....	138
X.Xolmurodov, N.Bo'tayeva Badiiy adabiyotda Shirin obrazi an'anasi va uning Alisher Navoiy she'riyatidagi talqini.....	141

## TABIY VA ANIQ FANLAR

Sh.R.Bobobekov Tarmoq xizmatlaridan o'quv jarayonida foydalanish imkoniyatlari.....	144
S.A.Usarov O'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda matematik masalalarning o'rni.....	147
S.T.Usmonova, I.R.Kamolov Fizika darslarida ISpring dasturida tuziladigan test shakllari va ularni yaratish metodikasi.....	150
B.B.Abdug'aniyev Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda robototexnika elementlaridan foydalanish.....	155
D.I.Mamurova Chizmachilik fanini axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitish jarayonini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida.....	158

## YOSH TADQIQOTCHILAR

U.Qosimov, R.Saidova Adabiy ta'sir muammolarining o'rganilishi.....	162
N.A.Xodjayeva Chet tillarini o'qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish.....	165
V.Shamshiyeva Inson qadr - qimmat tushunchasi va uning ijtimoiy-falsafiy mohiyati.....	168
M.R.Xidirova Bir asar tarixi (Tog'ay Murod ijodxonasidan lavha).....	171
O.B.Raxmatov, S.N.Normuhammedov Uzlusiz ma'naviy tarbiya barkamol avlod shakllanishining mustahkam poydevori.....	174
K.T.Muxamedzianov Uzbekskie vokalnnye tsikli na sovremennoy etape.....	180
M.N.Soibnazarova Yoshlarga milliy qadriyatlarimizni singdirishning pedagogik asoslari.....	182
Z.A.Mamarasulzoda XVI-XIX asrlarda o'zbek musiqa san'ati nazariyalarining rivojlanish tarixi.....	184
F.M.Sadriddinova Bo'lajak pedagoglarda kasbiy intellektual-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari.....	188
A.A.Boltayev Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy shakllantirishning ayrim deontologik jihatlari.....	190

## FILOLOGIK TA'LIMDA MUSTAQIL TOPSHIRIQLAR TUZISH VA FOYDALANISH METODIKASI

**Maloxat Ergashevna Axmedova** - p.f.n., dotsent, Toshkent tibbiyot akademiyasi

**Annotatsiya:** Maqolada ona tili o'qitish metodikasida o'quv topshiriqlaridan foydalanishning nazariy holati, xususan, bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilarini tayyorlashga mo'ljallangan o'quv adabiyotlarida savol, mashq va topshiriqlarning berilishi amaliy tahliliy o'rganildi, shuningdek, keyingi yillarda o'quv topshiriqlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga qisman munosabat bildirildi.

**Аннотация:** В статье дается практический анализ теоретического использования заданий в обучении родному языку, в частности, вопросов, упражнений и заданий в учебниках для будущих учителей родного языка и литературы, а также частичный ответ на исследования по улучшению заданий в последние годы.

**Abstract:** The article provides a practical analysis of the theoretical use of assignments in the teaching of mother tongue, in particular, questions, exercises and assignments in the textbooks for future teachers of mother tongue and literature, as well as a partial response to research on improving assignments in recent years.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, o'zbek tili o'qitish metodikasi, zamonaviy o'qitish talablari, o'quv topshiriqlari, nutqiy kompetensiya

**Ключевые слова:** высшее образование, методика обучения узбекскому языку, современные требования к обучению, задания, разговорная компетенция.

**Keywords:** higher education, Uzbek language teaching methods, modern teaching requirements, assignments, speaking competence

Har bir metodikaga doir tadqiqotning asosini o'quv topshiriqlari tashkil etadi. Ona tili ta'limida keyingi bir asr davomida ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Jadidlar boshlab bergan ta'limning mazmuni o'zida o'zbek tiliga xos milliylikni qamragan edi. Jadidlarning sa'y-harakatlari bilan yaratilayotgan, o'z davrida sekin-asta shakllanayotgan milliy ruhdagi "Ona tili" darsliklari o'z o'rnini 1939-yilga kelib A.G'ulomov ta'kidlaganidek<sup>1</sup>. 1938-yilda (S.Barxudarov va Dosichevalarning rus maktablari uchun "Rus tili" darsligi stabil qo'llanma sifatida qabul qilingach), o'zbek maktablari uchun ham keyingi yillarda til me'yorlarini belgilashda nazariy asos vazifasini o'tagan Olim Usmon va Barot Avizovlarning to'liqsiz o'rta va o'rta maktablar uchun tavsiya etilgan darsligi egalladi<sup>2</sup>. Keyinchalik professor A.K.Borovkov rahbarligida tuzilgan darsliklar<sup>3</sup>, oldingilariga nisbatan ancha mukammallikka egaligi bilan ajralib turadi. E'tiborli jihati shundaki, mazkur darsliklar mazmuni keyinchali oliy ta'lim darsliklariga ko'chdi, o'zbek tili grammatikasining asosiy qismiga aylandi. Yigirmanchi yillarning boshlarida yaratilgan o'zbek tili darsliklari tarkibida o'quv topshiriqlari mavjud emas edi. Keyinchalik A.Borovkov boshchiligida 1950-yillarda yaratilgan darsliklarda o'quv topshiriqlari kiritila boshlandi. Ammo, oliy ta'lim darsliklarida mashqlarga o'rin ajratilmagan. O'zbek tili o'qitish metodikasi darsliklarida ayrim o'quv topshiriqlari bor, o'quv qo'llanmalarda keyingi yillarda qat'iy tartibda kiritildi. Uzoq yillar oliy ta'lim darslik va qo'llanmalarida o'quv topshiriqlaridan

umumli foydalanilmadi. Bu holat o'zbek adabiy talaffuz me'yorlarining talabalar tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmay qolishiga olib keldi. Ona tili ta'limi tarixiga nazar tashlasak, bunday mashqlar o'zbek tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda (1930–1940) chop etilgan darsliklarda ham mavjud bo'lmagani yuqorida ta'kidlandi<sup>4</sup>. Metodist olim G'.Hamroev tadqiqotlarida o'quv topshiriqlari umumiy o'rta ta'lim tizimi doirasida o'rganib chiqilgan. Bu borada uning o'zbek tili o'qitish metodikasida mashq va topshiriqlar vazifa jihatidan farqlanmaydi, buning natijasida o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalar to'laqonli rivojlanmayapti<sup>5</sup>, degan fikriga ko'shilish mumkin. Darhaqiqat, oliy ta'lim darslik va qo'llanmalarida ham o'quv topshiriqlari maxsus o'rganilmagan, savolni topshiriqdan, topshiriqni esa mashqdan farqlab bo'lmaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mashq atamasiga shunday ta'rif berilgan: "Mashq 1. [arabcha. –husnixat, rasm chizish uchun namunalar] biror faoliyatni puxta o'rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg'uloti. Harbiy mashq. Mashq qilmoq. Siddiqjon ko'kragini sandalga berib, xat mashq qilar, Kanizak uning ro'parasida kitob o'qib o'tirar edi. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. – Ish yomon, – dedi kelgan militsionerlar, – ko'p mashq ko'rmagan, hali miltiq otishni bilmaydigan militsionerlar, qo'lidan nima kelar edi. S. Ayniy, Qullar. 2. Ma'lum maqsadda bajariladigan, qilinadigan muayyan ish, harakat. Imloga doir mashqlar. Jismoniy mashqlar. Bolalar bir-birlarining qo'llarini ushlab, gimnastika

1 Gulomov A.G. //Uzbekiston sovet ensiklopediyasi. –T., 1981. – 394-6.

2 Usman A., Avizov B. Uzbek tili grammatikasi. Birinchi b'lim. Fonetika va morfologiya. T'ulg'isiz u'rta va u'rta maktablar uchun darslik. –T.: U'zda'vna'shr, 1939. –235 b.

3 Borovkov A., Gulomov A., Ma'zurupov Z., Shermuxammedov T. Uzbek tili grammatikasi. –T.: U'zda'vna'shr, 1946 – 227-6.

4 Ramazan K., Qajjumi'j X. Grammatik. Sarf. U'rta maktablar uchun darslik. I qism. –T.: O'quvpedda'vna'shr, 1937. –1496

5 G'.Hamroev Ona tili u'qitishning samarali usullari. Metodik q'u'llanma. – Toshkent. Ba'e's. 2018. 197 b.

mashqlarini yengil va chiroyli bajaradilar. Gazetadan<sup>6</sup>.

"Pedagogika Ensiklopediyasi"da mashqqa berilgan ta'rifning ancha takomillashgan va ta'lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko'rish mumkin: Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko'p marta takrorlash. Mas., o'qish, yozish. M. ta'limda ko'nikma va malakalar hosil qilishda muhim o'rin tutadi<sup>7</sup>. Topshiriq atamasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif berilgan: "Topshiriq 1. Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshirig'i. Topshiriq bermoq. Tergovchi ham xit bo'ldi. Axir, u bu yerga o'ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan."<sup>8</sup> G'.Hamroyev ta'kidlagani kabi har bir atama o'z mazmun-mohiyatiga ega. Ya'ni, mashq muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg'ulotdan ko'zlangan ko'nikma va malakaga ega bo'lishni nazarda tutsa, topshiriq kishining, jumladan, o'quvchining zimmasiga biror mazvuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi<sup>9</sup>.

Demak, mashq – ko'nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa ma'lumotlarni xotiraga kirituvchi qurilmaga o'xshaydi. U yo'naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o'quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga o'rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham "Ona tili" darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma'lumotlar, ya'ni grammatik qoidalar o'quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta'lim mazmunida o'quvchi egallashi ko'zda tutilgan ko'nikma va malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi. Topshiriqlar bu o'rinda ko'proq o'quvchi bilimini boyitishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim tizimida ona tili o'qitish metodikasiga doir o'quv metodik adabiyotlarida o'quv topshiriqlari an'anaviy shaklda quyidagicha keltiriladi:

Amaliy ish. Savol va topshiriqlar.

1. O'zbek tilida so'z oxirida qanday tovush o'zgarishlari yuz berishi mumkin?

2. Qaysi tovushlar so'z oxirida jarangsizlanadi?

3. Qaysi tovushlar talaffuzda so'z oxirida tushib qoladi?

4. Talaffuz qilinmasa-da, imlodan yoziladigan harflar ishtirok etgan so'zlarga misollar keltiring. (pas(t), sus(t), juf(t))...

5. Mazkur harflarning mavjudligini qanday aniqlaysiz? (Toshkentimiz jamoli, mol go'shti kabi)<sup>10</sup>.

Qo'llanma mualliflari yuqoridagi kabi topshiriqlarni bajarishda talabalar til materiallarini kuzatadilar, so'zlarni qiyoslaydilar, o'xshash va farqli tomonlarini sharhlaydilar. Mazkur jarayon faqat imlo savodxonligining shakllanishini mas, balki tovush va harflarni farqlash, so'z ma'nosining o'zgarishida to'g'ri talaffuzning o'rni va ahamiyatini tushunib yetishga sabab bo'ladi, talaba so'z boyligining oshishiga, so'zlarni nutqiy vaziyatga qarab to'g'ri tanlash, o'z o'rnida to'g'ri qo'llashga ham o'rgatadi. Biroq bugungi ona tili o'qitish metodikasi o'quvchilarni, shu jumladan, talabalarni matn bilan ishlash, turli uslublardagi matnlarni o'qib tushuna olish, matndan anglaganlarini yozma va og'zaki bayon qilib bera olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ko'zda tutilmoqda.

O'zbek tili o'qitish metodikasi darsligida talabalarning bilim va malakalarini sinash taqdim etilgan savol va topshiriqlarni ham pragmatik o'quv topshiriqlari bilan almashtirish vaqti kelgan:

Savol va topshiriqlar:

1. Metodika fani nimani o'rganadi?

2. Metodikaning o'quv predmeti sifatidagi o'ziga xosliklarini izohlab bering.

3. Uning fan sifatidagi xususiyatlarini tushuntiring.

4. O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar (fonetika, grafika, hozirgi o'zbek adabiy tili, shevashunoslik, tilshunoslik asoslari) dan farqini tushuntirib bering.

5. Aniq misollarda umumiy, xususiy hamda maxsus metodikaning o'ziga xosliklarini izohlab bering<sup>11</sup>.

Bu o'rinda o'zbek tili o'qitish metodikasi bilan til sathlari o'rtasidagi farqlarni solishtirish bo'yicha berilgan topshiriq o'zini oqlamasligi mumkin. Uning fan sifatidagi ahamiyati haqida fikr yuritish o'rniga xususiyatlarini so'rash ahamiyatsizroqdir. Ona tili o'qituvchilari tayyorlash ko'zda tutilgan paytda ularning kasbiy mahoratlarini oshirishga xizmat qiladigan o'quv topshiriqlar tuzish vaqti kelgan. Shu ma'noda, ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha yaratiladigan kelgusi metodik adabiyotlarda buni, albatta, e'tiborga olish zarur.

Xulosa o'rnida, shuni aytish mumkinki, o'zbek tili o'qitish metodikasi zamon talablariga javob berishi uchun barcha diqqatni nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratish lozim. Bo'lajak ona tili va adabiyot o'qituvchilari o'z o'quvchilariga tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish va yozish ko'nikmalarini hosil qilishni o'rgatishi lozim. Buning uchun har bir bo'lajak o'qituvchi matn ustida ishlashni bilishi, bir fikrni turli shakllarda bera olishni o'rganishi, eng asosiysi, o'quv topshiriqlarini farqlay olishi, ulardan mashg'ulotlar davomida samarali foydalana olishi lozim.

6. Uzbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 2-jild. – T.: UZME, 2004. – 562-b.

7. Педагогика Энциклопедияси. 2-жild. – T.: Ж – М., 2012. – 223-b.

8. Uzbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 4-jild. – T.: UZME, 2004. – 150-b.

9. G'Hamroyev Ona tilidan o'quv topshiriqlarini tuzish metodikasi Toshkent. Donishmand z'iesi, 2021. 19-b.

10. Tuxliyev, V. Uzbek tili o'qitish metodikasi / B. Tuxliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova; red. T. Niyazmetova. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyati, 2010 – 13- b.

11. Tuxliyev, V. Uzbek tili o'qitish metodikasi / B. Tuxliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova; red. T. Niyazmetova. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyati, 2010 – 13- b.